

## **Transport nazorati inspeksiyasida 2023 yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-94-son farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi hamda Yo‘l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi negizida Transport vazirligi huzurida Transport nazorati inspeksiyasi tashkil etildi hamda unga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalarining avtomobilda tashishlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmali xodimlari o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 15 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 668-son qarori bilan inspeksiyaning maqomi va faoliyatini tashkil etish asoslari, vazifalari, funksiyalari, huquqlari hamda javobgarligi belgilandi.

Inspeksiya avtomobil, temir yo‘l, suv, elektr transporti va metropolitenda tashish xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan o‘z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi.

### **ASOSIY KO‘RSATKICHLAR**

#### **2023 yilda transport nazorati sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:**

Tadbirkorlik subyektlarida xavfni tahlil qilish orqali **692 marotaba** nazorat tadbirlari (tekshirish) o‘tkazildi;

Tekshiruv natijasi bo‘yicha **966 ta** bajarilishi majburiy bo‘lgan yozma ko‘rsatmalar berildi;

**4 477 marotaba** Tadbirkorlik subyektlarida Profilaktik tadbirlari o‘tkazildi.

Inspeksiyaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan - Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta‘mirlashda shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi nazoratini amalga oshirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalar doirasida yo‘l qurilishi obyektlarida faoliyat yuritayotgan **tadbirkorlik subyektlarida qoidabuzarliklarni** oldini olishga qaratilgan **1 094 ta profilaktika tadbirlari** o‘tkazildi.

O‘tgan 2023 yilda **917 ta** yo‘l qurilishi obyektlarida nazorat ishlari o‘tkazilishi natijasida **1 945 ta** qoidabuzarliklar aniqlandi. (*Shu jumladan: qurilish – 135 ta, rekonstruksiya – 282 ta, ta‘mirlash – 1 132 ta va boshqa obyektlarda 396 ta.*)

Aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha **jami 943 ta** bajarilishi majburiy bo‘lgan **ko‘rsatmalar** berildi. (*Shu jumladan: buyurtmachilarga – 30 ta, pudratchilarga – 736 ta, boshqa tashkilotlarga – 177 ta.*)

Nazorat ishlari natijasida aniqlangan **8 milliard 969 mln. so‘mlik** sifatsiz bajarilgan ishlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha buyurtmachi tashkilotlarga **137 ta** talabnomalar kiritildi.

Qo‘pol ravishdagi qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan **86 ta ma’muriy bayonnomalar** rasmiylashtirilib sud organlariga yuborildi.

Shuningdek, hisobot davrida barcha dasturlar doirasida foydalanishi topshirilishi rejulashtirilgan **obyektlar soni 163 tani** (*shundan: yo‘l obyektlari 110 ta va ko‘priklar 53 ta*) tashkil etadi, **biroq** amalda obyektlarda ishlar to‘liq yakunlanmaganligi hamda kamchiliklar mavjudligi sababli Transport nazorati inspeksiyasi Yo‘l-qurilishi ishlarini nazorat qilish hududiy bo‘limlari ishtirokida jami – **90 ta** obyekt foydalanishga qabul qilindi, (*Shu jumladan: avtomobil yo‘llari jami 49 ta – ya’ni qurilish – 6 ta, rekonstruksiya qilish – 20 ta, mukammal ta‘mirlash – 23 ta hamda sun’iy*

*inshootlar jami 41 ta, ya’ni qurilish – 4 ta, rekonstruksiya qilish - 26 ta, mukammal ta’mirlash – 11 ta).*

#### **AVTOMOBIL TRANSPORTIDA NAZORATI YO‘NALISHI BO‘YICHA:**

2024 yil 1 yanvar holatida Respublikamizda avtomobil transporti soxasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami **3 970 ta korxonalar** (MChJ)lar mavjud bo‘lib, ularda **litsenziyalangan** transport vositalari **229 917 tani** tashkil etmoqda, jumladan:

**avtobuslar 7 779 tani,**

**mikroavtobuslar 3 579 tani,**

**yengil avtomobillar soni 195 346 tani (damas 30 541),**

**yuk avtomobillari esa 23 213 tani** tashkil etadi.

Bundan tashqari, yengil avtomobilda yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanadigan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni **128 526 tani** tashkil etadi.

Respublika bo‘yicha joriy yil 1 yanvar holatiga tashuvchilar tomonidan **2 426 ta** muntazam yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatib kelinmoqda, jumladan ulardan **546 tasi shaxar** yo‘nalishlari, **1652 ta shaxar atrofi** hamda **228 tasi shaharlararo** yo‘nalishlaridir.

2023 yil davomida Tadbirkorlik subyektlarini litsenziya talab va shartlariga rioya etilishi yuzasidan **49 ta korxonada** tekshiruv o‘tkazish bo‘yicha **Biznes-ombudsman bilan kelishilib tekshiruvlar** o‘tkazilgan.

Tekshiruv natijalarida, korxonalarda **litsenziyasiz va tender guvoxnomasiz** faoliyat ko‘rsatish xolatlari aniqlangan bo‘lib, ularga nisbatan tegishli moliyaviy jarimalar qo‘llanilgan.

Shu bilan birga, **2023 yil davomida** Transport nazorat inspeksiyasi Ichki ishlar vazirligini YHXB boshqarmalari bilan hamkorlikda Respublika bo‘yicha jami **16 188 ta reyd-tadbirlari** o‘tkazgan bo‘lib, ushbu reyd tadbirlar davomida avtomobilda tashuvtolar sohasida **110 298 ta huquqbazarlik aniqlangan** va ularga nisbatan ma‘muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, tegishliliqi bo‘yicha jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga yuborilgan.

Rasmiylashtirilgan ma‘muriy bayonnomalarga asosan **71 180** nafar huquqbazar faoliyatini qonuniylashtirib, **litsenziya varaqasini** olgan.

#### **TEMIR YO‘L VA METROPOLITEN NAZORATI YO‘NALISHI BO‘YICHA:**

**65 ta** tadbirkorlik subyektlarida **tekshiruvlar o‘tkazildi.** Mazkur tekshiruvlar jarayonida **3805 ta** temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini ta’minalash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ hujjatlar talablari buzilishi, infratuzilma va **harakat tarkiblarining nosozligi aniqlandi.**

Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo‘lgan **61 ta ko‘rsatmalar berildi.**

**2 022 ta** temir yo‘l transporti xavfsizligini ta’minalash va texnik vositalarning ishonchlilagini oshirishga qaratilgan **profilaktika tadbirlari o‘tkazildi.**

**43 ta** temir yo‘l transporti obyektlari, mahsulotlari va texnologiyalarining belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan ularni **doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga qabul qilish ishida ishtirok etildi.**

**98 ta** temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi talablarini buzish holatlari bo‘yicha temir yo‘l transporti korxonalari va tashkilotlari tomonidan olib borilgan **xizmat tekshiruvlarida** ishtirok etildi.

**82 ta** temir yo‘l transporti korxonalari va tashkilotlariga harakat xavfsizligi bo‘yicha tahlili **xabarnomalar yuborildi.**

**1 266 ta** temir yo‘l kesishmalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiyalar ishida ishtirok etildi.

**181 ta** mahalla va o‘quv muassasalarda manzilli targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

#### **SUV TRANSPORTIDA NAZORAT YO‘NALISHI BO‘YICHA:**

Respublikada mavjud bo‘lgan kemalarni aniqlash, kema reestriga kiritish, ularni tegishli texnik ko‘riklardan o‘tkazish uchun **61** ta kema egasi bilan shartnomaga tuzildi (Xorazm viloyati **23**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi **6**, Surxondaryo viloyati **8**, Toshkent viloyati **24**). Foydalanishda bo‘lgan **113** ta kema texnik ko‘rikdan o‘tkazildi, **12** ta kema ro‘yxatga olindi, **5** ta kema qayta ro‘yxatga olindi, **5** ta kemaga qurish, yangidan jihozlash va ta’mirlash davrida texnik nazorat olib borildi.

Kema reestriga 2024 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra o‘zgartirishlar kiritildi va kemalar soni **262** tani tashkil etdi.

Transport nazorati inspeksiyasi xodimlarining bilim va malakasini oshirish, xalqaro tajribani sohada tadbiq etish maqsadida Rossiya Federatsiyasining vakolatli transport nazorati organi - Rostransnadzor bilan tajriba almashish ishlari amalga oshirildi va anglashuv memorandumi imzolandi.

## 2024 YIL REJALAR

Sohada islohotlarni davom ettirish hamda **mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish** maqsadida, **2024 yilda transport nazorati sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:**

- avtomobil, temir yo‘l, suv, elektr transporti va metropolitenda **tashish xavfsizligini ta’mirlash yuzasidan** davlat nazoratini amalga oshirish;
- **avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlashda** shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- Respublika hududida avtovositalarining ruxsat etilgan **vazn va gabarit parametrlariga rioya etilishini** nazorat qilish;
- yuk va yo‘lovchilarni tashishda haydovchilarining hamda lokomotiv brigadalari ishchilarining **mehnat va dam olish rejimini** nazorat qilish;
- harakatdagi **temir yo‘l tarkibi hamda infratuzilmasi obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish** orqali ularni hisobga olish va yagona reestrini yuritish.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sohani raqamlashtirish ishlari alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, mazkur yo‘nalishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

**“Temir yo‘l harakatdagagi tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” axborot tizimi** ishlab chiqiladi.

Mazkur tizim yaratilishi natijasida:

Respublikadagi temir yo‘l harakatdagagi tarkibi va infratuzilmasi obyektlarining yagona elektron ma’lumotlar bazasi shakllanishiga erishiladi;

Lokomotiv, vagon, elektrota’mot, aloqa va signallashtirish, tashish va yo‘l xo‘jalik obyektlarining texnik holati to‘g‘risida aniq ma’lumotlar shakllanadi;

Davlat nazorati bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishslash imkoniyati yaratiladi.

Mehnat va dam olish rejimiga, belgilangan tezlikka rioya etilishini nazorat qilish uchun taxograf qurilmasidagi ma’lumotlarni aniqlaydigan maxsus elektron qurilma (kardrider) xarid qilinadi va dasturiy ta’motga ulanadi.

*Bu orqali*, yuk va yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanadigan haydovchilarining xalqaro va mahalliy yo‘nalishlarda mehnat va dam olish rejimiga, belgilangan tezlikka rioya etilishini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Shu orqali, **yo‘l transport hodisalarining oldini olish va o‘lim holatlarini qisqartirish yoki bartaraf etishga** erishiladi.

Inspeksiya xodimlarini zamonaviy axborot elektron qurilmalari bilan ta'minlanadi. Xususan, davlat inspektorlari **150 ta planshet va 251 ta bodi kamera** qurilmalari bilan jihozlanadi, ular uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqiladi va tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi.

Shu orqali:

Inspeksiya xodimlarining ish samaradorligi oshiriladi;

reyd nazorat tadbirdari davomida hujjatlarni rasmiylashtirishda qog'ozbozlikdan voz kechiladi;

reyd tadbirlarida xodimlar ish faoliyati masofadan nazorat qilinadi;

vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy korrupsiyaviy holatlar oldi olinadi.

**"Yo'l sifat nazorat"** axborot tizimi ishlab chiqilayapti va bu tizim **"Shaffof qurilish"** axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi hamda joriy yilning 2-chorakidan test rejimida ishga tushuriladi.

Mazkur tizim ishga tushirilishi natijasida:

yo'l qurilishi obyektlarini ro'yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlar raqamlashtiriladi;

qog'oz ko'rinishidagi hujjatbozlik tizimidan avtomatlashtirilgan elektron tizimga o'tiladi;

yo'l qurilishi obyektlarining loyiha hujjatlari va ekspertiza xulosalarini tizimdan elektron shaklda o'rganish va nazorat ishlarini amalga oshirish imkonini yaratiladi.

Shuningdek, Prezident farmoni va qarorlarida Transport nazorati inspeksiyasiga berilgan vakolat, huquq va majburiyatlarni qonunchilikka moslashtirish maqsadida "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks va boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilishi ko'zda tutilgan.